

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI
FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Fakultet dekani, f.-m.f.n.
_____ G'.F.Djabbarov
“ ____ ” _____ 2014 yil

“5140100-Matematika” ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi
TO'RAQULOVA FAROG'AT FAYZULLAYEVNA
**“KXKlarda tengsizliklarni intervallar metodidan foydalanib yechishga
o'rgatish metodikasi” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba:_____F.F.To'raqulova

Ilmiy rahbar: “Matematika va uni
o'qitish metodikasi” kafedrası
dotsenti, f.-m.f.n.
_____A.Normonov

Taqrizchilar:
“Matematika va uni o'qitish
metodikasi” kafedrası dotsenti,
p.f.n._____N.O.Eshpo'latov

TTYSI qoshidagi 2-akademik litsey
matematika o'qituvchisi
_____A.Xolmatov.

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Matematika va uni o'qitish metodikasi”
kafedrası mudiri,
f.-m.f.d. _____ R.Beshimov.
“ ____ ” _____ 2014 yil

Mundarija

Kirish

I BOB. Tengsizliklarning asosiy xossalari.

1.1. Sonli va qo'sh tengsizliklarning asosiy xossalari

1.2. Tengkuchli tengsizliklar va ularning xossalari

II BOB. Tengsizliklarni intervallar metodi bilan yechish

2.1. Ratsional tengsizliklarni intervallar metodi bilan yechish.

2.2. Bir o'zgaruvchili yuqori darajali tengsizliklar sistemasi va to'plami.

2.3. Modul belgisi ostida berilgan bir o'zgaruvchili tengsizliklarni yechish.

2.4. Matematikani chuqurroq o'rganiladigan guruhlarda tengsizliklarni intervallar metodi bilan yechishga o'rgatish

2.5. Ko'rstkichli va logorifmik tengsizliklarni yechish

2.6. Trigonometrik tengsizliklarni yechishda intervallar metodi

2.7. Tengsizlikni tengkuchli almashtirish yordamida intervallar metodi bilan yechish.

III BOB. Pedagogik kuzatishlar va ba'zi tajriba - sinov ishlari haqida

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Ilova

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim islohotini to'la amalga oshirish uchun qator ishlarni amalga oshirish zarurligi alohida ta'kidlangan. Shuningdek, kasb-hunar kollejlarida fan asoslarini o'qitilishini izchillik bilan chuqurlashtirish, yangi texnologiyalar to'g'risida asosiy tasavvurlarni, zamonaviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik bilimlarni berish, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning darajasini fan-texnika va ma'naviy taraqqiyot talablariga doim muvofiq bo'lishini ta'minlash eng dolzarb vazifalardan qilib qo'yildi. Bu esa o'z navbatida matematika ta'limning mazmuni nimalardan iboratligini to'la aniqlashtirib olish va uning umumiy o'rta ta'lim maktabi va o'rta maxsus ta'limning boshqa kurslar bilan qanday munosabatda ekanligini aniqlashni taqazo etadi .

O'quvchilarning amaliy tayyorgarligi ishlab chiqarishning texnologiyasi haqidagi eng umumiy qonuniyatlarini bilishda namoyon bo'ladi. Shu bilimlar asosida o'quvchilarda ishlab chiqarish jarayonida zarur bo'ladigan umumlashgan ko'nikmalar shakllantiriladi. Shunday ekan, bilimlarning amaliy yo'nalishi o'qitiladigan predmetlar mazmunida o'z aksini topishi lozim.

KXX matematikasi kursida algebra va matematik analiz elementlari bugungi kunda yetakchi yo'nalishlardan bo'lib u algebrani va keyinchalik algebra va matematik analiz asoslarini o'qitishda yetakchi rol o'ynaydi.

KXX lari matematikasi kursida tenglama va tengsizliklar yo'nalishi eng asosiylardan bo'lib bu yo'nalish boshqa son tushunchasi yo'nalishi, funksiya tushunchasi yo'nalishi, ayniy almashtirishlar bilan bevosita bog'liq bo'lib o'zaro aloqadorlikda o'qitilishni talab etadi. Tengsizliklar va ularning sistemalarrini o'qitish muammosi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun biz BMI mavzusini **"KXXlarda tengsizliklarni intervallar metodidan foydalanib yechishga o'rgatish metodikasi"** tarzida tanladik.

BMIning maqsadi: KXX matematikasi kursida tengsizliklarni o'qitishda intervallar metodidan foydalanishga o'rgatish metodikasini shakllantirishdan iborat.

BMIning ob'ekti: KXX matematika kursini o'qitish jarayoni.

BMIning predmeti: KXX matematikasi kursida tengsizliklarni intervallar metodiga o'rgatishning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalarini va shakllarini ishlab chiqishdan iborat.

BMIning vazifalari:

1. Mavzuga oid metodik adabiyotlarni, me'yoriy xujjatlarni, o'quv darsliklarni, metodik qo'llanmalarni o'rganish, taxlil qilish, umumlashtirish.
2. KXXlar matematikasi kursida tengsizliklarni intervallar metodidan foydalanib yechishga o'rgatish metodikasini ishlab chiqish.
3. KXX larda tengsizliklarni yechish xususan, intervallar metodidan foydalanib yechishga o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan bilim ko'nikma va malakalar tizimini aniqlash.
4. Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini ko'rsatish uchun ba'zi tajriba-sinov va kuzatish ishlarini o'tqizish.
5. BMI ni yozish davomida olingan natijalarni xulosa va tavsiyalar tarzida shakllantirish va taqdim etish.

I BOB. Tengsizliklarning asosiy xossalari.

1.1. Sonli va qo'sh tengsizliklarning asosiy xossalari

Ikkita a va b haqiqiy son $a < b$ va $a = b$ bo'lganda tenglik, $a < b$ bo'lganda kichik, $a > b$ bo'lganda katta munosabatda bo'ladi. a va b sonlar $a < b$ yoki $a > b$ ($a \leq b$ yoki $a \geq b$, $a = b$) bo'lganda tengsizlik munosabatida bo'ladi.

Tengsizlik " $<$ " yoki " $>$ " belgilar yordamida yozilgan bo'lsa, qat'iy " $\leq$ " yoki " $\geq$ " belgilar yordamida yozilgan bo'lsa, noqat'iy tengsizlik deyiladi.

masalan $7 < 11$, $m^2 > 3$ qat'iy, $\frac{a}{b} + \frac{b}{a} \geq 2$, $a^2 \leq 1$ noqat'iy tengsizlik.

Teorema: $a > b$ bo'lsa, $a - b$ musbat, $a < b$ bo'lsa $a - b$ manfiy bo'ladi. Aksincha $a - b$ musbat son bo'lgandagina $a > b$ bo'ladi. $A - b$ manfiy son bo'lgandagina $a < b$ bo'ladi.

Sonli tengsizliklarning xossalari:

1. Agar $a > b$ va $b < c$ bo'lsa, $a > c$ bo'ladi.
2. $a > b$ bo'lsa, $b < a$ bo'ladi va aksincha, agar $a < b$ bo'lsa $b > a$ bo'ladi.
3. $a > b$ va c – ixtiyoriy son bo'lsa, $a \pm c > b \pm c$ bo'ladi.
4. $a > b$ va $n > 0$ bo'lsa, $an > bn$ yoki $a:n > b:n$ bo'ladi.

To'g'ri tengsizlikning ikkala qismi biror manfiy songa ko'paytirilsa yoki bo'linsa hamda tengsizlik belgisi qarama-qarshilisiga almashtirilsa, yana to'g'ri tengsizlik hosil bo'ladi.

1- Ta'rif: Ikkita tengsizlikda bir xil " $>$ " (" $\geq$ ") yoki " $<$ " (" $\leq$ ") belgi bo'lsa ular bir xil ma'noli, agar tengsizliklardan birida $>$ belgi, ikkinchisi $<$ belgi bo'lsa, ular qarama-qarshi ma'noli tengsizliklar deb ataladi.

5. $a > b$ va $n < 0$ bo'lsa, $a \cdot n < b \cdot n$ yoki $a:n < b:n$ bo'ladi.

6. $a > b$ va $c > d$ bo'lsa, $a + c > b + d$ bo'ladi. Bir xil ma'noli to'g'ri tengsizliklarning chap qismini chap qismiga, o'ng qismini o'ng qismiga qo'shish mumkin.

7. $a > b$ va $c < d$ bo'lsa, $a - c > b - d$ bo'ladi.

Qarama-qarshi ma'noli to'g'ri tengsizliklarning chap qismidan chap qismini, o'ng qismidan o'ng qismini ayirib, birinchi tengsizlikning belgisini qo'yish mumkin.

8. $a > b > 0$ va $c > d > 0$ bo'lsa $ac > bd$ bo'ladi. Qismlari musbat bo'lgan bir xil ma'noli to'g'ri tengsizliklarning mos qismlarini ko'paytirish mumkin.

9. $A > b > 0$ va $n \in \mathbb{N}$ bo'lsa, $a^n > b^n$ bo'ladi.

Qismlari musbat bo'lgan to'g'ri tengsizlikning har ikki qismini bir xil natural ko'rsatkichli daraja shaklida yozish mumkin.

10. $a > b > 0$ bo'lsa $\frac{1}{a} < \frac{1}{b}$ bo'ladi.

11. $a > b \geq 0$ va $n \in \mathbb{N}$ bo'lsa, ${}^n \overline{a} > {}^n \overline{b}$ bo'ladi.

Ta'rif: $a < b < c$ yoki $a > b > c$ ($a \leq b \leq c$ yoki $a \geq b \geq c$) tengsizlik qo'sh tengsizlik deyiladi.

Qo'sh tengsizliklarning asosiy xossalari:

1. Agar $a < b < c$ bo'lsa, $c > b > a$ bo'ladi.

2. Agar $a < b < c$ bo'lib, ixtiyoriy son ($d \in \mathbb{N}$) bo'lsa, $a+d < b+d < c+d$ bo'ladi.

3. Agar $a < b < c$ bo'lib, $n > 0$ bo'lsa, $a \cdot n < b \cdot n < c \cdot n$ yoki $a : n < b : n < c : n$ bo'ladi.

4. Agar $a < b < c$ va $n < 0$ bo'lsa, $a \cdot n > b \cdot n > c \cdot n$, yoki $a : n > b : n > c : n$ bo'ladi.

5. Ta'rif: $a_1 < b_1 < c_1$ bilan $a_2 < b_2 < c_2$ yoki $a_1 < b_1 < c_1$ bilan $a_2 < b_2 < c_2$ yoki $a_1 > b_1 > c_1$ bilan $a_2 > b_2 > c_2$ tengsizliklar bir xil ma'noli, $a_1 < b_1 < c_1$ tengsizliklar bilan $a_2 < b_2 < c_2$ yoki $a_1 > b_1 > c_1$ bilan $a_2 > b_2 > c_2$ tengsizliklar esa qarama – qarshi manoli qo'sh tengsizliklar deyiladi

6. Agar $a_1 < b_1 < c_1$ va $a_2 > b_2 > c_2$ bo'lsa, $a_1 - a_2 < b_1 - b_2 < c_1 - c_2$ bo'ladi.

Masalan 1)
$$\begin{array}{l} 4 < 10 < 15 \\ + 0 < 15 < 9 \\ \hline 4 < 25 < 24 \end{array}$$

7. Agar $0 < a_1 < b_1 < c_1$ va $0 < a_2 < b_2 < c_2$ bo'lsa, $a_1 a_2 < b_1 b_2 < c_1 c_2$ bo'ladi.

Masalan, $1 < 8 < 15,4$ va $2 < 4 < 7$ bo'lsa, $1 \cdot 2 < 8 \cdot 4 < 15,4 \cdot 7$ yoki $2 < 32 < 107,8$ bo'ldi.

8. Agar $0 < a < b < c$ va $n \in \mathbb{N}$ bo'lsa, $a^n < b^n < c^n$ bo'ladi.

9. Agar $0 < a < b < c$ bo'lsa, $\frac{1}{a} > \frac{1}{b} > \frac{1}{c}$ bo'ladi.

10. Agar $0 \leq a < b < c$ va $n \in \mathbb{N}$ bo'lsa, ${}^n \bar{a} < {}^n \bar{b} < {}^n \bar{c}$ bo'ladi.

1.2. Teng kuchli tengsizliklar va ularning xossalari

$f(x)$ va $\varphi(x)$ ifodalar $f(x) \vee \varphi(x)$ (1) ($\vee$ belgi $>$ yoki $<$ belgilardan birini bildiradi), $f(x) \geq \varphi(x)$ (1'), $f(x) \leq \varphi(x)$ (1'') munosabatda bo'lsa, bir o'zgaruvchili tengsizlik deyiladi. Masalan

1) $5x - 3 < 2 - \frac{x}{4}$

4) $9 + 3^x \geq 3^{2x}$

2) $5x - 2 > 7x^2$

5) $4\log_3 x < 3 + \log_3^2 x$

3) $x^3 - 2x < x(3 + x)$

6) $\sin 2x \geq \frac{1}{2}$

va bir o'zgaruvchili tengsizliklar bo'lib, 1) birinchi darajali (chiziqli), 2) ikkinchi darajali (kvadratik), 3) uchinchi darajali, 4) ko'rsatkichli, 5) logarifmik, 6) trigonometric tengsizlikdir.

Ta'rif : tengsizlikning aniqlanish sohasi ($D(T)$) deb tengsizlikning har ikki qismdagi ifodalar aniqlanish sohalarining kesishmasiga aytiladi.

$x - 3 > 2x$ tengsizlikning aniqlanish sohasi $(-\infty; +\infty)$ dan $x - 3 \leq x - 4 < 0$ tengsizlikning aniqlanish sohasi $[0; +\infty)$ dan iborat.

Ta'rif: Tengsizlikning yechimi deb o'zgaruvchining shu tengsizlikni to'g'ri tengsizlikka aylantiradigan qiymatga aytiladi.

Ta'rif: tengsizlikni yechish uning barcha yechimlari to'plamini topishdan iborat.

Masalan, $x - 1 < 0$ tengsizlikning yechimi $(-\infty; 1)$ to'plamdan, $\log_2 x \geq 3$ tengsizlikning yechimi $[8; +\infty)$ to'plamdan, $x^2 > -1$ tengsizlikning yechimi barcha haqiqiy sonlar to'plami $\mathbb{R}$ dan, $10 + x^2 < 0$ tengsizlikning yechimi esa bo'sh to'plamdan iborat.

Ta'rif: ikki tengsizlikdan birining barcha yechimlari ikkinchisi uchun ham yechim bo'lsa, ikkinchisining barcha yechimlari esa birinchisi uchun ham yechim bo'lsa, bunday tengsizliklar deyiladi.

Masalan, $2x < 8$ va $x-1 < 3$ teng kuchli tengsizliklardir, chunki har ikki tengsizlik uchun 4 dan kichik barcha haqiqiy sonlar to'plami yechim bo'ladi. Teng kuchli tengsizliklar $(2x < 8) \Leftrightarrow (x-1 < 3)$ kabi yoziladi.

Yechimlari bo'sh to'plamdan iborat bo'lgan tengsizliklar ham teng kuchli deb ataladi.

Teng kuchli tengsizliklarga doir teoremlarni keltiramiz.

1-teorema. Tengsizlikning ikkala qismiga ixtiyoriy son yoki tengsizlikning aniqlanish sohasida ma'noga ega bo'lgan ifoda qo'shilsa (yoki ikkala qismidan ayrilsa), berilgan tengsizlikka teng kuchli tengsizlikka teng kuchli tengsizlik hosil bo'ladi.

Masalan, 1) $2x+3 < 7 \Leftrightarrow 2x+3+4x^2 < 7+4x^2$ (tengsizlikning har ikki qismiga tengsizlikning har ikki qismiga tengsizlikning aniqlanish sohasi $(-\infty; +\infty)$ da aniqlangan $4x^2$ ifoda qo'shilgan);

2) $\frac{3}{x} > 2 \Leftrightarrow \frac{3}{x} + \frac{4}{x^2} > 2 + \frac{4}{x^2}$ (tengsizlikning har ikki qismiga uning aniqlanish sohasi $(-\infty; \infty) \cup (0; +\infty)$ da aniqlangan $\frac{4}{x^2}$ ifoda qo'shilgan);

3) $x > 3$ va $x + \frac{2}{x-3} > 3 + \frac{2}{x-3}$ tengsizliklar teng kuchli emas, chunki tengsizlikning har ikki qismiga qo'shilgan $\frac{2}{x-3}$ ifoda berilgan tengsizlikning har ikki qismiga qo'shilganda aniqlanish sohasi $(\mathbb{R})$ ga tegishli $x=3$ da aniqlanmagan.

Natija: tengsizlikning biror hadi ishorasini qarama-qarshisiga almashtirib, shu hadni tengsizlikning bir qismidan ikkinchi qismiga o'tkazish mumkin.

2-Teorema. Agar tengsizlikning ikkala qismi manfiy songa yoki tengsizlikning aniqlanish sohasida faqat manfiy qiymatlarni qabul qiluvchi ifodaga

ko'paytirilib (yoki bo'linib), tengsizlik belgisini qarama-qarshisiga almashtirilsa, berilgan tengsizlikka teng kuchli tengsizlik hosil bo'ladi.

1- natija. Tengsizlikning ikkala qismidagi ifodalarning ishorasini qarama-qarshisiga o'zgartirib tengsizlik belgisini ham qarama-qarshisiga almashtirish mumkin.

2- natija. Tengsizlikning har ikkala qismini ishorasi ma'lum bo'lmagan ifodaga ko'paytirish mumkin emas.

Masalan $\frac{2x-1}{x+1} < 1$ tengsizlikning har ikki qismini $x+1$ ga ko'paytirib, $2x-1 < x+1$ ko'rinishida yozish mumkin emas, chunki $x+1$ ning ishorasi ma'lum emas, u $x \in (-1; +\infty)$ bo'lganda musbat $x \in (-\infty; -1)$ bo'lganda esa manfiydir.

3- Teorema. Agar tengsizlikning ikkala qismi musbat songa yoki tengsizlikning aniqlanish sohasida faqat musbat qiymatlarni qabul qiluvchi ifodaga ko'paytirilsa (yoki bo'linsa), berilgan tengsizlikka teng kuchli tengsizlik hosil bo'ladi.

Bir o'zgaruvchili chiziqli tengsizliklar sistemasini va tengsizliklar to'plamini yechish.

1- Ta'rif. Agar bir nechta bir o'zgaruvchili tengsizliklar berilib, o'zgaruvchining ularning har birini qanoatlantiradigan barcha qiymatlari to'plamini topish nazarda tutilganda, bir o'zgaruvchili tengsizliklar sistemasi

$$\begin{aligned} f_1(x) &\vee 0 \\ f_2(x) &\vee 0 \\ f_n(x) &\vee 0 \end{aligned} \quad (1)$$

berilgan deyiladi.

$$\text{Agar } f_i(x) = a_i x + b_i \text{ (bunda } i=1, 2, \dots, n) \text{ ya'ni } \begin{aligned} a_1 x + b_1 &\vee 0 \\ a_2 x + b_2 &\vee 0 \end{aligned} \quad \begin{aligned} a_1 x + b_1 &\vee 0 \\ a_2 x + b_2 &\vee 0 \\ a_3 x + b_3 &\vee 0 \end{aligned} \text{ va}$$

h.k. bo'lsa, (1) bir o'zgaruvchili chiziqli tengsizliklar sistemasidan iborat bo'ladi.

2- Ta'rif. Bir o'zgaruvchili tengsizliklar sistemasining yechimi deb o'zgaruvchining shu sistemani tashkil etuvchi barcha tengsizliklarni qanoatlantiradigan qiymatiga aytiladi.

3- Ta'rif. Tengsizliklar sistemasini yechish deb uning barcha yechimlar to'plamini topishga aytiladi.

Tengsizliklar sistemalari to'plami sistemani tashkil qiluvchi har bir tengsizliklarning yechimlari to'plamlarining kesishmasidan iborat bo'ladi.

1 – misol. Tengsizliklar sistemasini yeching.

$$\begin{cases} \frac{x+3}{2} \geq 3x + \frac{1}{4} \\ \frac{1-2x}{3} < \frac{x}{4} + 1 \end{cases} \quad (2)$$


$$\text{Yechish: } (2) \Leftrightarrow \begin{cases} 2x + 3 \geq 12x + 1 \\ 4(1 - 2x) < 3x + 12 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 2x + 6 \geq 12x + 1 \\ 4 - 4x < 3x + 12 \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\begin{cases} 10x \leq 5 \\ 11x > -8 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \leq \frac{1}{2} \\ x > -\frac{8}{11} \end{cases}$$

Yechim har ikkala tengsizlikning yechimlari to'plamlarining kesishmasidan iborat, ya'ni $-\frac{8}{11}; +\infty \cap -8; \frac{1}{2} = (-\frac{8}{11}; \frac{1}{2}]$. Javob : $(-\frac{8}{11}; \frac{1}{2}]$.

$$\begin{aligned} 2- \text{ Misol. Tengsizliklar sistemasini yeching. } & \begin{cases} 4x - 1 > 0,5 - x \\ 7x - 9 < 3 - 5x \\ 9 - x \geq 5 + x \end{cases} \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} \text{Yechish: } & \begin{cases} 4x - 1 > 0,5 - x \\ 7x - 9 < 3 - 5x \\ 9 - x \geq 5 + x \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 5x > 1,5 \\ 12x < 12 \\ 2x \leq 4 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x > 0,3 \\ x < 1 \\ x \leq 2 \end{cases} \end{aligned}$$



1-rasm

1-rasmda berilgan sistemani tashkil etuvchi tengsizliklarning yechimlari mos ravishda uzliksiz, uzilgan va punktlari egri chiziqli yoʻllari bilan belgilangan boʻlib, sistemaning yechimlar toʻplami shtrixlangan. Javob (0,3;1)

4 – taʼrif. Agar bir nechta bir oʻzgaruvchili tengsizlik berilib, oʻzgaruvchining berilgan tengsizliklardan kamida bittasini qanoatlantiradigan barcha qiymatlar toʻplamini topish nazarda tutilsa, bir oʻzgaruvchili tengsizliklar toʻplami (birlashmasi)

$$\begin{aligned} f_1(x) &\vee 0 \\ f_2(x) &\vee 0 \\ f_k(x) &\vee 0 \end{aligned} \quad (3) \text{ berilgan deyiladi.}$$

Tengsizliklar toʻplamnin yechimlari toʻplamni tashkil qiluvchi barcha tengsizliklarning yechimlar toʻplamlarining birlashmisidan iborat boʻladi.

3- Misol. Tengsizliklar toʻplamini yeching.

$$\begin{aligned} 3x - \frac{3+x}{2} &< 5 - 4x \\ 2 + \frac{3x}{2} &< 7x - 9 \end{aligned} \quad (4)$$

$$\text{Yechish: (4)} \Leftrightarrow \begin{aligned} 6x - 3 - x &< 10 - 8x \\ 4 + 3x &< 14x - 18 \end{aligned} \Leftrightarrow \begin{aligned} 13x &< 13 \\ 11x &> 22 \end{aligned} \Leftrightarrow \begin{aligned} x &< 1 \\ x &> 2 \end{aligned}$$

$$\text{Javob: } (-\infty; 1) \cup (2; +\infty)$$

4-misol. Tengsizlikni yeching.

$$3\frac{1}{3} < \frac{2x-3}{2} < 4,2 \quad (5)$$

Yechish: 1 – usul (qoʻsh tengsizliklarining xossalariidan foydalanish usuli).

$$(5) \Leftrightarrow 20 < 3(2x-3) < 25,2 \Leftrightarrow 29 < 6x < 34,2 \Leftrightarrow 4\frac{5}{6} < x < \frac{17,1}{3} = 5,7. \quad \text{Javob: } (4\frac{5}{6}; 5,7)$$

2- usul (tengsizliklar sistemasini yechish usuli)

$$(5) \Leftrightarrow \begin{matrix} 3\frac{1}{2} < \frac{2x-3}{2} \\ \frac{2x-3}{2} < 4,2 \end{matrix} \Leftrightarrow \begin{matrix} 20 < 3(2x-3) \\ 2x-3 < 8,4 \end{matrix} \Leftrightarrow \begin{matrix} 6x > 29 \\ 2x < 11,7 \end{matrix} \Leftrightarrow$$

$$\begin{matrix} x > 4\frac{5}{6} \\ x < 5,7 \end{matrix} \Leftrightarrow 4\frac{5}{6} < x < 5,7$$

$ax + b \vee c$ ko'rinishidagi tengsizliklar va ularning sistemasi.

I. $ax + b < c$ (1) tengsizlik $c \leq 0$ bo'lganda ychimga ega emas.

1 – teorema. $c > 0$ bo'lganda $ax + b < c \Leftrightarrow -c < ax + b < c \Leftrightarrow \begin{matrix} ax + b > -c \\ ax + b < c \end{matrix}$ (2)

1-misol. Tengsizlikni yeching. $5x - 2 \vee 3$ (*)

Yechish: 1 – usul (qo'sh tengsizlik yozish bilan yechish).

$$(*) \Leftrightarrow -3 < 5x - 2 < 3 \Leftrightarrow -1 < 5x < 5 \Leftrightarrow -0,2 < x < 1 \quad \text{Javob: } (0,2;1).$$

2- usul. (tengsizliklar sistemasini tuzish bilan yechish).

$$(*) \Leftrightarrow \begin{matrix} 5x - 2 < 3 \\ 5x - 2 > -3 \end{matrix} \Leftrightarrow \begin{matrix} 5x < 5 \\ 5x > -1 \end{matrix} \Leftrightarrow \begin{matrix} x < 1 \\ x > -0,2 \end{matrix} \Leftrightarrow 0,2 < x < 1$$

3- usul. (tengsizlikning har ikkala qismini kvadratga ko'tarish bilan yechish).


Berilgan tengsizlikning har ikkala qismi manfiy bo'lmagani uchun $5x - 2 \vee$

$$3 \Leftrightarrow (5x-2)^2 < 9 \Leftrightarrow 25x^2 - 20x + 4 < 9 \Leftrightarrow 25x^2 - 20x - 5 < 0 \Leftrightarrow 5x^2 - 4x - 1 < 0 \Leftrightarrow 5(x-1)(x+\frac{1}{5}) < 0$$

$$\Leftrightarrow \begin{matrix} x - 1 > 0 \\ x + \frac{1}{5} < 0 \end{matrix} \Leftrightarrow \begin{matrix} x > 1 \\ x < -\frac{1}{5} \end{matrix} \Leftrightarrow \begin{matrix} \emptyset \\ 0,2 < x < 1 \end{matrix} \Leftrightarrow -0,2 < x < 1$$

4-usul (grafik usul bilan yechish). $y=|5x-2|$ va $y=3$ funksiyalarning grafigini

chizamiz. Chizmada x ning $(-0,2;1)$ oraliqdagi qiymatlarida $|5x-2| < 3$ bo'lganidan yechim $(-0,2;1)$ to'plamdan iborat bo'ladi.



2-rasm

II. $|mx+n|>k$ tengsizliklarning yechimi: a) $k<0$ bo'lganda $(-\infty;+\infty)$ to'plamdan, b) $k=0$ bo'lganda $(-\infty;-\frac{n}{m})\cup(-\frac{n}{m};\infty)$ to'plamdan iborat.

2- teorema. $k>0$ bo'lganda $|mx+n|>k \Leftrightarrow \begin{cases} mx+n > k \\ mx+n < -k \end{cases} \quad (4)$

2- misol. Tengsizlikni yeching $|2x-1|\geq 3$

Yechish: $|2x-1|\geq 3 \Leftrightarrow \begin{cases} 2x-1 \geq 3 \\ 2x-1 \leq -3 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} 2x \geq 4 \\ 2x \leq -2 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \geq 2 \\ x \leq -1 \end{cases}$

Javob: $(-\infty;-1]\cup[2;+\infty)$.

II BOB. Tengsizliklarni intervallar metodi yordamida yechish.

2.1. Ratsional tengsizliklarni intervallar metodi bilan yechish.

Ushbu $f(x) \forall 0$ tengsizlikni yechish $f(x)$ funksiyaning ishorasini aniqlashdan iborat, ya'ni $f(x) > 0$ bo'lganda $f(x)$ -musbat, $f(x) < 0$ bo'lganda $f(x)$ -manfiy bo'lgan x ning qiymatlarini topishdan iborat.

Umuman (1) tengsizlikni yechish uchun:

1) $f(x)$ funksiyaning aniqlanish sohasi $D(f)$ aniqlanadi;

2) $f(x)$ funksiyaning barcha (haqiqiy) ildizlari topiladi;

3) topilgan ildizlar yordamida $D(f)$ da funksiya bir xil ishoraga ega bo'lgan intervallar hosil qilinadi;

4) har bir intervaldagi $f(x)$ funksiyaning ishorasi aniqlanadi.

x ning $f(x)$ ishorasi (I) tengsizlik ishorasiga monand keladigan qiymatlarini barcha intervallari birlashmasi berilgan tengsizlikning yechimi bo'ladi.

Bu metod zaminida funksiyaning aniqlanish sohasini intervallarga ajratib, bu intervallarda funksiya ishorasini aniqlash yotgani uchun bu metod intervallar metodi deb ataladi.

Bir ushbu BMI da tengsizliklarni intervallar metodi bilan yechish deganda $f_i(x)$ chiziqli funksiya (bunda $i=1,2,..,k$) bo'lganda.

$f_1(x), f_2(x) \dots f_k(x) \forall 0$ ko'rinishidagi tengsizliklarni yechishgina nazarda tutiladi. Tengsizliklarni intervallar metodi bilan yechishning bunday tushunish bu metod mohiyatini to'liq tushunmaslikdan iboratdir. Chunki intervallar metodi bilan irratsional, ko'rsatkichli, logorifmik, trigonometrik va h.k. tengsizliklarni ham yechish mumkin.

Masalan, $\sqrt{3x+2} > \sqrt{x+1} + \sqrt{2x-3}$ tengsizlikni yechaylik.

$$\overline{3x+2} > \overline{x+1} + \overline{2x-3} \Leftrightarrow \overline{3x+2} - \overline{x+1} - \overline{2x-3} > 0$$

1) $g(x) = \overline{3x+2} - \overline{x+1} - \overline{2x-3}$ funksiyaning aniqlanish sohasini topamiz:

$$D(t) \begin{cases} 3x+2 \geq 0 \\ x+1 \geq 0 \\ 2x-3 \geq 0 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x \geq -\frac{2}{3} \\ x \geq -1 \\ x > \frac{3}{2} \end{cases} \Leftrightarrow x \geq 1,5$$

Demak, $D(t) = [1,5; +\infty)$.

2) $g(x)$ funksiya-sining ildizlarini topish uchun $\overline{3x+2} - \overline{x+1} - \overline{2x-3} = 0$ tenglamani yechamiz:

$$\begin{aligned} \overline{3x+2} &= \overline{x+1} + \overline{2x-3} \Leftrightarrow \overline{2x^2 - x - 3} = 2 \\ &\quad x \geq 1,5 \\ \Leftrightarrow \begin{cases} 2x^2 - x - 7 = 0 \\ x \geq 1,5 \end{cases} &\Rightarrow x = \frac{1}{4} (1 + \sqrt{57}) \end{aligned}$$

3) $g(x)$ funksiyaning ildizi $x = \frac{1}{4} (1 + \sqrt{57})$ aniqlanish sohasi $D(T) = [1,5; \infty)$ ni ikkita $1\frac{1}{2}; \frac{1}{4} (1 + \sqrt{57})$ va $\frac{1 + \sqrt{57}}{4}; +\infty$ intervallarga ajratadi.

4) Hosil bo'lgan intervallarda $g(x)$ funksiya ishorasini tekshiramiz. Buning uchun shu oraliqlarga tegishli bittadan qiymat, masalan, $x=2$ va $x=3$ ni olamiz:

$$a) \quad x = 2 \in 1\frac{1}{2}; \frac{1}{4} (1 + \sqrt{57}) , g \, x = \overline{8} - \overline{3} - 1 > 0$$

$$b) \quad x = 3 \in \frac{1 + \sqrt{57}}{4}; +\infty , g \, 3 = \overline{11} - 2 - \overline{3} < 0$$

Demak, x ning $1\frac{1}{2}; \frac{1}{4} (1 + \sqrt{57})$ intervalidagi qiymatlarida funksiya musbat

bo'lgani uchun yechimlar to'plami $1\frac{1}{2}; \frac{1}{4} (1 + \sqrt{57})$ dan iborat bo'ladi.

Intervallar metodi bilan ko'rsatkichli logarifmik, trigonometric va h.k. tengsizliklarni ham yechish mumkin bo'lgani sababli bu metodni tengsizliklarni yechishning umumiy metodi deyish ham mumkin.

Ko'p hollarda tengsizliklarni intervallar metodi bilan yechish bo'shqa metodlar bilan yechishga nisbatan samarali bo'ladi. Ushbu $\varphi_1(x) \cdot \varphi_2(x) \cdot \dots \cdot \varphi_k(x) \neq 0$ tengsizlikni $\varphi(x) = \varphi_1(x) \cdot \varphi_2(x) \cdot \dots \cdot \varphi_k(x)$ funksiya ishorasini hisobga olgan holda tengsizliklar sistemalarining to'plamini tuzish bilan yechish mumkin. Masalan, (2)da $k=3$ bo'lsin, ya'ni $\varphi_1(x) \cdot \varphi_2(x) \cdot \varphi_3(x) > 0$ tengsizlikni yechish uchun quyidagi tengsizliklar sistemalarining to'plami tuziladi va yechiladi:

$$\begin{array}{cccc} \varphi_1(x) > 0 & \varphi_1(x) > 0 & \varphi_1(x) < 0 & \varphi_1(x) < 0 \\ \varphi_2(x) > 0 \text{ yoki } \varphi_2(x) < 0 & \varphi_2(x) < 0 \text{ yoki } \varphi_2(x) > 0 & \varphi_2(x) > 0 \text{ yoki } \varphi_2(x) < 0 & \varphi_2(x) < 0 \text{ yoki } \varphi_2(x) > 0 \\ \varphi_3(x) > 0 & \varphi_3(x) < 0 & \varphi_3(x) < 0 & \varphi_3(x) > 0 \end{array}$$

Agarda (2)da $k=4$ bo'lib $\varphi_1(x) \cdot \varphi_2(x) \cdot \varphi_3(x) \cdot \varphi_4(x) \neq 0$ tengsizlikni yechish talab qilinganda 8ta tengsizliklar sistemasini yechish lozim bo'lar edi. Shu sababli bu metod ko'paytuvchilar soni ko'p bo'lgan hollarda murakkab bo'lib, tengsizlikni yechish ko'p vaqt talab qiladi. Bu esa ba'zan xatoga yo'l qo'yishga ham sabab bo'ladi.

(2) tengsizlikni intervallar metodi bilan yechish uchun:

1) (3) funksiyaning aniqlanish sohasi $D(T)=(a,b)$ aniqlanadi;

2) $\varphi_1(x) \cdot \varphi_2(x) \cdot \dots \cdot \varphi_k(x) = 0$ (4) tenglamani yechib, uning ildizlari topiladi $x_1, x_2, \dots, x_{n-1}, x_n$ topiladi: (bunda $x_1 < x_2 < \dots < x_{n-1} < x_n$) deb faraz qilamiz);

3) (3) funksiyaning aniqlanish sohasi $(a:b)$ da $n+1$ ta $(a:x_1), (x_1:x_2)(\dots), (x_n,b)$ oraliqlar hosil qilinadi;

4) (3) funksiya ishorasi (2) tengsizlik ishorasiga monand bo'lgan intervallar aniqlanadi.

(3) funksiyaning ishorasini bir necha usul bilan aniqlash mumkin.

1-usul (funksiya qiymatini hisoblash usuli).

(2) tengsizlikni yechish uchun (3) funksiyaning ildizlari hamda uzilish nuqtalari $x_1, x_2, \dots, x_n$ topilib ($x_1 < x_2 < \dots < x_n$ deb faraz qilamiz), uning aniqlanish

sohasidagi ishorasi bir xil bo'lgan $(a:x_1)$, $(x_1:x_2)$, ..., $(x_n:b)$ intervallarning har birida funksiyaning ishorasi aniqlanadi. Funksiya ishorasi bilan tengsizlik ishorasi bir xil bo'lgan oraliqlar birlashmasi berilgan tengsizlikning yechimi bo'ladi.

2-usul (jadval tuzish usuli).

(2) tengsizlikni yechish uchun (3) funksiyaning ildizlari va uzilish nuqtalari topilib, jadvalning 1-satrida (3) funksiya ishorasi o'zgarmaydigan $n+1$ ta oraliqlar, keyingi k ta satrida esa $\varphi_i(x)$ funksiylarining ($i=1,2, \dots, k$), eng quyi satrida esa $\varphi(x)$ ning shu oraliqlardagi ishoralari yoziladi. Jadvalning quyi satridagi $\varphi(x)$ ning ishorasi bilan berilgan tengsizlikning ishorasi bir xil bo'lgan oraliqlar birlashmasi tengsizlikning yechimi bo'ladi.

(1-jadval)


Oraliqlar Funksiyalar	$(a:x_1)$	$(x_1:x_2)$	$(\dots)$	$(x_{n-1}:x_n)$	$(x_n:b)$
$\varphi_1 x$					
$\varphi_2 x$					
...					
$\varphi_k x$					
$\varphi x = \bigcup_{i=1}^k \varphi_i(x)$					

3-usul. (o'zaro parallel kordinata to'g'ri chiziqlaridan foydalanish usul).

(2) tengsizliklarni yechish uchun k ta koordinata to'g'ri chizig'ida $f_i(x)=(i=1, 2, \dots, k)$ funksiylarning ishora chig'i alohida-alohida chiziladi. So'ngra $(k+1)$ – koordinata to'g'ri chizig'ida (3) funksiyaning aniqlanish sohasidagi har bir

oraliqda funksiyalarning ishoralari taqqoslanib, $f(x)$ ning ishorasi belgilanadi. Ishorasi tengsizlik ishorasi bilan monand bo'lgan oraliqlar aniqlanadi. Bunday intervallar birlashmasi berilgan tengsizlikning yechimi bo'ladi.


Masalan $(x-2)(2x+3) \lg(4-x) \lg(x+5) > 0$ tengsizlikni yechish uchun 4 ta koordinata to'g'ri chizig'ida to'rtala funksiyaning ishora chiziqlari chiziladi.



6-rasm

Behinchi son to'g'ri chizig'ida berilgan tengsizlikning aniqlanish sohasi $(-5;4)$ da tengsizlikning chap qismidagi funksiyalarning chap qismidagi funksiyalarning ildizlari ajralgan $(-5;-4)$, $(-4;-1,5)$, $(-1,5;2)$, $(2;3)$ va $(3;4)$ intervallar hosil qilinadi. Bu intervallardan 2 – va 4 –sida ko'paytma musbat bo'lgani uchun tengsizlikning yechimi $(-4;-1,5) \cup (2;3)$ dan iborat bo'ladi (bu oraliqlar koordinata to'g'ri chizig'ida shtrixlangan) (6-rasm).

Agar barcha funksiyalarning ishora chiziqlarini bitta koordinata to'g'ri chizig'ida har xil qilib quyidagi rasmdek chizilsa yechimni aniqlash oson bo'ladi (chizmada yechim intervallari shtrihlangan).



7-rasm

(2) tengsizlikning chap qismida ko'paytuvchilar soni ortgan soni chizma murakkab bo'lib, tengsizlikni noto'g'ri yechishga sabab bo'ladi. Shunga qaramay berilgan tengsizlikni boshqa usullarda yechish murakkab bo'lgan hollarda bu usuldan ham foydalaniladi.

4 – usul (tengsizlikning yechim chizmasini chizish usuli).

Bu usulda tengsizlik quyidagicha yechiladi:

- 1) tengsizlikning chap qismidagi funksiya ildizlari va uzilish nuqtalari topiladi;
- 2) koordinata to'g'ri chizig'ida aniqlangan ildizlar va uzilish nuqtalariga mos nuqtalar belgilanib, funksiya bir xil ishoraga ega bo'lib, intervallar hosil qilinadi;
- 3) funksiyaning “ishora chizig'i” chiziladi;
- 4) berilgan tengsizlikning yechimi bo'ladigan oraliqlar shtrixlanadi, so'ngra tengsizlikning javobi yoziladi. Hosil bo'lgan chizmaga berilgan “tengsizlikning yechimi chizmasi” deyiladi.

misol. Tengsizlikni yeching.


$$(2x+5)(x-2)(x+1) > 0$$

Yechish: Berilgan tengsizlikni jadval usulida yechish quyidagi jadvalda tasvirlangan.

Oraliqlar	$(-\infty; -2,5)$	$(-2,5; -1)$	$(-1; 2)$	$(2; +\infty)$
Funksiyalar				
$2x+5$	-	+	+	+
$x+1$	-	-	+	+
$x-2$	-	-	-	+
$(2x+5)(x+1)(x-2)$	-	+	-	+

Berilgan tengsizlikni yechim chizmasi yordamida yechish uchun:

- 1) $(2x+5)(x-2)(x+1)$ funksiyaning yoki $(2x+5)(x-2)(x+1)=0$ tenglamaning ildizlari -2,5; 2 va -1 topiladi;
- 2) Ildizlarni son to'g'ri chizig'ida belgilab



$(-\infty; -2,5)$, $(-2,5; -1)$; $(-1; 2)$ va $(2; +\infty)$ oraliqlar hosil qilinadi.

3) $f(x) = (2x+5)(x-2)(x+1)$ funksiyaning ishora chizig'i chiziladi (yuqoridagi chizma).

4) Yechim chizmasida $(2x+5)(x-2)(x+1)$ funksiya musbat bo'lgan $(-2,5; -1)$ va $(2;+\infty)$ intervallar shtrixlanadi. Javob: $(-2,5; -1) \cup (2;+\infty)$.

Ratsional tengsizliklarni intervallar metodi bilan yechish

$x^n + a_1x^{n-1} + a_2x^{n-2} + \dots + a_{n-1}x + a_n \geq 0$ (1) tengsizlikni yechish

$f(x) = x^n + a_1x^{n-1} + a_2x^{n-2} + \dots + a_{n-1}x + a_n$ (2) funksiyaning ishorasini aniqlashdan iborat bo'lgani uchun bu mavzuga doir oily va elementar matematika kursining ba'zi teoremlari bilan tanishishga to'g'ri keladi.

Teorema: Agar $(a;b)$ intervalda uzluksiz bo'lgan $f(x)$ funksiya interval chegaralarida har xil ishoraga ega bo'lsa, shu interval ichida kamida bitta nuqta $x_0 \in (a;b)$ mavjud bo'ladiki, funksiya shu nuqtada nolga teng, ya'ni $f(x_0)=0$ bo'ladi.

2-teorema. Agar $f(x)$ funksiya biror $(a;b)$ intervalda uzluksiz bo'lib, ildizlarga ega bo'lmasa, shu intervalda u faqat bir xil ishoraga ega bo'ladi.

Natija. Agar (2) funksiya faqat k ta $x_1, x_2, \dots, x_k$ ($k \leq n$) ildizga ega bo'lib, $x_1 < x_2 < \dots < x_k$ bo'lsa, bu funksiyaning ishorasi $(-\infty; x_1)$, $(x_1; x_2), \dots, (x_k; +\infty)$ intervalning hech birida o'zgarmaydi.

Funksiya bir xil va faqat bir xil ishoraga ega bo'lgan intervalga funksiyaning bir xil ishora intervali deyiladi.

3 – teorema. Agar (2) funksiyaning chiziqli ko'paytuvchilar ko'paytmasi, ya'ni

$$f(x) = (x-x_1)(x-x_2)\dots(x-x_n) \quad (3)$$

ko'rinishida ifodalash mumkin bo'lsa $f(x)$ funksiyaning ishorasi uning ildizlari $(x_1, x_2, \dots, x_n)$ f yordamida hosil bo'lgan ixtiyoriy ikki qo'shni intervalda har xil bo'ladi.

Isbot. $x_1 < x_2 < \dots < x_{i-1} < x_i < x_{i+1} < \dots < x_n$ bo'lib, $(x_{i-1}; x_i)$ va $(x_i; x_{i+1})$ intervallarda ixtiyoriy ikkita qo'shni intervallar bo'lsin.

Agar $x \in (x_{i-1}; x_i)$ bo'lsa $x - x_i < 0$ bo'ladi, agar $x \in (x_i; x_{i+1})$ bo'lsa, $x - x_i > 0$ bo'ladi, agar $x \in (x_i; x_{i+1})$ bo'lsa, $x - x_i > 0$ bo'ladi, ya'ni (3) ko'paytmada $x - x_i$ ikki had $(x_{i-1}; x_i)$

va $(x_i; x_{i+1})$ intervallarda har xil ishorali bo'lib, qolgan ikki hadlar ko'paytmasi esa bu oraliqlarda bir ishoraga ega. Shu sababli (3) funksiyaning ishorasi bu ikki qo'shni intervallarda har xil bo'ladi.

4-teorema. (3) funksiya $(x_n; +\infty)$ intervalda musbat (bunda x_n (3) funksiyaning ildizlari ichida eng kattasi).

Isbot. Haqiqatan ham, $x \in (x_n; +\infty)$ bo'lsa, $x_1 < x_2 < \dots < x_n < x$ bo'lgani sababli $x - x_1, x - x_2, \dots, x - x_n$ ikki hadlarning har biri musbat bo'lganidan ularning ko'paytmasi (3) funksiya ham musbat bo'ladi.

1-natija. (3) funksiyaning ishorasi uning n ta ildizi $(x_1, x_2, \dots, x_n)$ yordamida hosil bo'lgan $(-\infty; x_1) \dots (x_n; +\infty)$ intervallarda galma-gal almashadi.

2-natija. $(x - x_1)(x - x_2) \dots (x - x_n) > 0$ (4) bunda $x_1 < x_2 < \dots < x_n$ bo'lsin, tengsizlikning yechimi $(-\infty; x_1), (x_1; x_2), \dots, (x_{n-1}; x_n), (x_n; +\infty)$ intervallarning o'ngdan I, III, V, ... larning birlashmasidan;


$$(x - x_1)(x - x_2) \dots (x - x_n) < 0 \quad (4')$$

tengsizlikning yechimi bu oraliqlarning o'ngdan II, IV, VI, ... larning birlashmasidan iborat bo'ladi.

1-misol. Tengsizlikni yeching:

$$x(x+2)(x-1) < 0$$

Yechish: $x(x+2)(x-1) = 0$ tenglamaning ildizlari; -2; 0; 1. Bu ildizlarni koordinata to'g'ri chizig'ida belgilab,



$(-\infty; -2)$, $(-2; 0)$, $(0; 1)$ va $(1; +\infty)$ intervallarni hosil qilamiz. Funktsiyaning ishora chizig'i hosil bo'lgan oraliqlarning o'ngdan 1 – sida son to'g'ri chiziqning yuqorisiga, qolganlarida esa son to'g'ri chizig'ining ostiga, yuqorisiga va h.k. chiziladi. $x(x+2)(x-1)$ funksiya manfiy bo'lgan $(-\infty; -2)$ va $(0; 1)$ intervallar shtrixlanadi. Javob: $(-\infty; -2) \cup (0; 1)$.

5 – teorema. Agar $f(x)$ funksiya $(a; b)$ intervalda uzluksiz o'suvchi (yoki kamayuvchi) bo'lib, x_0 dan iborat ildizga ega, ya'ni $f(x_0)=0$ bo'lsa, bu funksiya shu ildiz atrofida har xil ishoraga ega bo'ladi, chuninchi $(a; x_0)$ intervalda manfiy (musbat) $(x_0; b)$ intervalda esa musbat (manfiy) bo'ladi.

Natija. Agar $f(x)$ funksiya $(a; b)$ intervalda uzluksiz va shu intervaldagi $x=x_0$ ildizi atrofida har xil ishoraga ega bo'lsa, $(f(x))^{2k+1}$ ($k \in \mathbb{N}$) funksiya ham $x=x_0$ (toq karrali) ildiz atrofida har xil ishoraga ega bo'lib, bu funksiylarning ishoralari bir xil bo'ladi, ya'ni $(f(x))^{2k+1} \vee 0 \Leftrightarrow f(x) \vee 0$ ($k \in \mathbb{N}$), xususiyl holda. $(x-x_0)^{2k+1} \vee 0 \Leftrightarrow (x-x_0) \vee 0$ ($k \in \mathbb{N}$).

2 – misol. Tengsizlikni yeching.

$$x(x+1)^3(x-2)^5 > 0$$

Yechish: 5- teoremaning natijaga ko'ra $(x+1)^2$ bilan $(x+1)$, $(x-2)^5$ bilan $(x-2)$ bir xil ishoraga ega bo'lgani uchun: $x(x+1)^3(x-2)^5 > 0 \Leftrightarrow x(x+1)(x-2) > 0$

Javob: $(-1; 0) \cup (2; +\infty)$


2⁰. 6- teorema. $\frac{f}{g} \geq 0$ va $f(x) \cdot g(x) \geq 0$ tengsizliklar teng kuchlidir, ya'ni

$$\frac{f}{g} \geq 0 \Leftrightarrow f(x)g(x) \geq 0 \quad (5)$$

3-misol. Tengsizlikni yeching:

$$\frac{x - 2,5}{x^2 - 1} < 0 \Leftrightarrow x(x-2,5)(x^2-1) < 0 \Leftrightarrow x(x-2,5)(x-1)(x+1) < 0.$$

$x(x-2,5)(x-1)(x+1)$ funksiyaniing ildizlari: -1; 0; 1; 2,5. Ildizlarni koordinata to'g'ri chizig'ida belgilab, funksiyaniing ishora chizig'ini chizamiz va yechim intervallarini shtrixlaymiz.




Javob: $(-1;0) \cup (1;2,5)$.

4- Misol. Tengsizlikni yeching.

$$\frac{x^2}{1-0,5x} < 0$$

Yechish: $\frac{x^2}{1-0,5x} < 2 \Leftrightarrow \frac{x^2}{1-0,5x} - 2 < 0 \Leftrightarrow \frac{x^2-x-2}{1-0,5x} < 0 \Leftrightarrow$

$$(x^2+x-2)(1-0,5x) < 0 \Leftrightarrow (x+2)(x-1)(0,5x-1) > 0$$



Javob: $(-2;1) \cup (2;+\infty)$.

3⁰. Ta'rif. Agar kvadrat uch had

$$ax^2+bx+c \quad (6) \quad \text{ni}$$

chiziqli ikki hadlar ko'paytmasi $a(x-x_1)(x-x_2)$ (bunda $x_1 \in \mathbb{R}$, $x_2 \in \mathbb{R}$) ko'rinishida tasvirlash mumkin bo'lnasa, u chiziqli ko'paytuvchilarga ajralmaydigan kvadrat uch had deyiladi.

1-lemma. Agar $x=x_0$ nuqta $(a;b)$ intervalda uzluksiz $y=f(x)$ funksiyaning shu intervaldagi ildizi bo'lsa, $y=(f(x))^{2k}$ funksiya $x=x_0$ (juft karrali) ildiz atrofida musbat bo'ladi.

1-natija. $(x-x_0)^2 > 0$ tengsizlikning yechimi $(-\infty; x_0) \cup (x_0; +\infty)$ dan, $(x-x_0)^2 < 0$ tengsizlikning yechimi esa $\emptyset$ dan iborat.

2-natija $(f(x))^{2k} \cdot \varphi(x) \vee 0 \Leftrightarrow \begin{matrix} \varphi(x) \vee 0, \\ f(x) \neq 0; \end{matrix}$ xususiylashtirishda $(x-x_0)^{2k} \varphi(x) \vee 0 < \Rightarrow \begin{matrix} \varphi(x) \vee 0, \\ x \neq x_0; \end{matrix}$

